



O'RTA OSIYODA XONLIKLAR DAVRIDA VAQF MULKCHILIGI  
MUNOSABATLARI

**Nargiza Kamolova**

*UrIU Tarix kafedrası dotsenti, PhD*

[kamolovanargiza2018@gmail.com](mailto:kamolovanargiza2018@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududida xonliklar davridagi vaqf mulkchilik munosabatlari, vaqf mulklarining turlari, egalik tartibi, soliqlarga tortilish tartibi manbaviy asosda ilmiy tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *vaqf, a'lo, avsat, adno, qazu*

**Annotation.** *This article provides a scholarly, source-based analysis of waqf property relations during the period of the khanates in Central Asia, including the types of waqf properties, the rules of ownership, and the procedures of taxation.*

**Keywords:** *waqf, a'lo, avsat, adno, qazu.*

**Аннотация.** *В данной статье на основе письменных источников проведён научный анализ отношений вакуфной собственности в период ханств Средней Азии, включая виды вакуфных владений, порядок их принадлежности и особенности налогообложения.*

**Ключевые слова:** *вакф, высшая (аъло), средняя (авсат), низшая (адно), категории, казу*

O'rta Osiyo xonliklarida yerga egalik munosabatlari murakkab va tabaqalashtirilgan shakllarda mavjud bo'lgan. Xiva xonligi misolida ko'rish mumkinki, agrar munosabatlar iqtisodiy hayotning markaziy tayanchini tashkil etgan. Yer aholining asosiy tirikchilik manbai sifatida nafaqat xo'jalik faoliyatini belgilagan, balki ijtimoiy tabaqalanish va davlat siyosati yo'nalishlarini ham shakllantirgan. Shu sababli, yer bilan bog'liq masalalar oddiy xo'jalik jarayoni doirasidan chiqib, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va uni boshqarishning o'ziga xos huquqiy hamda ma'muriy mexanizmlari ishlab chiqilgan. Bu holat agrar tizimning feodal tabiatini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, Buxoro xonligida vaqf yerlar, asosan, yaylov sifatida foydalanilgan bo'lsa-da, ular jamoa tasarrufida emas, balki xususiy mulkdor Mihr-Sultonxonim qo'lida bo'lgan va uning nomidan tuzilgan hujjatga ko'ra vaqfga o'tkazilgan. Demak, yaylovlar ham boshqa yerlar kabi ayrim shaxslarning xususiy mulki bo'lishi, sotilishi, vaqfga berilishi va boshqacha shakllarda o'zlashtirilishi mumkin edi.

Xorazm vohasining xonlik davriga oid topilgan arxiv materiallarning bir qismida materiallarda vaqf mulkchilik munosabatlari, vaqf mulklarining ro'yxati keltirilgan, xususan, masjidlar bo'yicha tuzilgan qishloq aholisi ro'yxatlari, "alo", "avsat" va "adna" kategoriyalariga bo'lingan solg'ut to'lovchilarning ma'lumotlari, "Xiva xoni kanselyariyasi" bo'limiga kiritilgan hujjatlardagi materiallar shular jumlasidandir. Shu bilan



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



birga, ushbu materiallarning bir qismi hali batafsil tasniflanmagan fondlarda saqlanmoqda. Mazkur hujjatlardagi 9 ta daftar xonlik aholisining ro‘yxatlarini o‘z ichiga oladi.

Jumladan, №396-hujjat yaxshi saqlangan daftar bo‘lib, “Xiva xonligi yerlarini o‘lchash haqida” deb nomlangan. Daftar 49 varaqdan iborat bo‘lib, rus yozuvli qog‘ozdan tayyorlangan bo‘lib, mazkur hujjatdagi Bo‘zyak hududidagi yer egalari ro‘yxatidan quyidagi ma’lumotlarga nazar solamiz. Xususan, Muhammad Karimbek 100 tanob, Mirahmadxon 100 tanob, Muhammad Murodbek 60 tanob, Xizir Mahram 30 tanob, Karaxan Mahram 30 tanob, Ali Says 30 tanob, Qalandar Kotir 30 tanob, Muhammad Niyoz Hakim Faran 20 tanob, Eniyoz Mahram, birodar Bekniyoz Mahram 30 tanob, Yokubbek bin Muhammad 60 tanob, Erniyoz Mahram 60 tanob. Mazkur daftardagi yer egaligiga oid ma’umotlar 1855 yiga tegishli ekanligi tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanadi.

Shuningdek, quyidagi yozuvlarga e’tibor qaratish lozim: 8a-varaq: Utamurad bin Eshmon-navkar Muhammad Qurbana 12 tanob yer, 496-varaq: Xo‘jamberdi bin G‘ulam Ali 12,5 tanob yer.

Ushbu yozuvlar 1262 (1845) hijriy yiliga taalluqli bo‘lib, daftarning boshlanishi 1259 (1843) hijriy yiliga borib taqalishi ehtimoldan holi emas, chunki aynan shu yili Xiva xonligida yerlarni o‘lchash ishlari amalga oshirilgan. Daftar mazmuni shu davrdagi yer egalari ro‘yxatini o‘z ichiga olgani sababli, Xiva xonligi tarixini o‘rganish uchun nihoyatda muhim manbadir.

№ 396 raqamli daftarda ilgari ilmiy muomalaga kiritilmagan va turkmanlar tarixiga doir muhim yangi hujjat ham aniqlangan. Ushbu manba materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim turkman guruhlar avvalgi urug‘ tarkibidan ajralib chiqib, yer ijarachisi sifatida mustaqil xo‘jalik yurita boshlaganlar. Xususan, Turkmanlar–Karadashli jamoasi Yarmishboy atrofidagi vaqf yerlari ijarasini qabul qilgan bo‘lib, 1860–1861 yillarda ular solgut to‘lovi hamda qazu — ya’ni sug‘orish tarmoqlariga suv yetkazish bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarish sharti bilan mazkur yerlardan foydalanishgan.

May oyida ular quyidagi vaqf yerlarini ijaraga olganlar: Salmanbay masjidida tasarrufidagi yerlardan Salmanbay bin Anna Durdi 25 tanob, Oraz Durdi bin Anna Durdi 10 tanob, Anna Niyoz bin Artuk 10 tanob, Amanmuhammed bin Avaz Durdi 10 tanob, Dost Kok bin Hasan 10 tanob, Ata Niyoz bin Mirza Vali 10 tanob, Budak bin Ali 10 tanob, Niyazquli bin Mengsha 10 tanob, Xanquli bin Annaquli 10 tanob, Avaz Ali bin Anna Vali 10 tanob, Kok bin Bekali 10 tanob, Aman bin Shayx Muhammad 10 tanob yer ijarasini olganliklari qayd etilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в вакф-наме. –Тошкент. 1966. – С. 27.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2. Юлдашев М.И. Новые ценные архивные материалы по истории Средней Азии. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1962. № 6. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, – С. 58.

